The Journal of ECONOMICS and PEDAGOGY

JEP

Maqola turi (Maqola, Filologiya, Asl maqola)

Shahodat Isaxonova tarixiy romanlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarining qo‘llanilishi

Matmusayeva Nadira Mamirovna [1*]

[1] University of economics and pedagogy; Andijon; O‘zbekiston; mamirovnanadira@gmail.com.
[2] Ish joyi; shahar; mamlakat; e-mail:xxx@e-mail.com.
* Yozishmalar mamirovnanadira@gmail.com; +998994438185: (171003; Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani, Mehnat MFY, Do‘stlik ko‘chasi 45-uy; University Of Economics And Pedagogy NOTM; Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), vb dotsenti,; Andijon; O‘zbekiston)

Abstrakt

O‘zbek adabiyoti maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yozuvchi Sh.Isaxonova qahramon xarakterini yaratishda uning hayotidagi eng muhim qirralarni tasvirlash va fe’l-atvori, xatti-harakatlariga xos xususiyatlar shakllanishining ildizlarini ochib berish yo‘lidan boradi. Adibaning romanlarida epik tasvirdagi ana shu usulni makon, zamon va shaxs konsepsiyasi, xilma-xil hayotiy voqea-hodisalarni ishonarli tasvirlash, voqelikni turli rakurslarda aks ettirish imkoniyatlarini kuzatish mumkin. Sh.Isaxonova o‘z tarixiy romanlarida ayol shaxsi va uning xarakteri, ruhiyatini ochib berishda jonli xalq tili boyliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanib, o‘z navbatida ham jonli tilning, ham adabiy tilning o‘sishiga hissa qo‘shadi. Adiba voqealarning mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab so‘z va iboralar tanlab, badiiy tilining ravon va o‘tkirligi jihatlaridan bugungi o‘zbek romanchiligiga munosib hissa qo‘shmoqda. Maqolada Sh.Isaxonovaning mustaqillik yillarida yaratgan “Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshod begim”, “Nodirai davron” tarixiy romanlarida ijtimoiy kelib chiqishi turli xil bo‘lgan ayollarning obraz xarakterlarini yaratishdagi uslubiy mahorat qirralari badiiy dalillar asosida berilgan.

Kalit so‘zlar: ayol obrazi, badiiy tasvir, tarixiy-biografik roman, maqol, badiiy obraz, xarakter, asar tili va uslubi,ibora, topishmoqlar.

Type of the Paper (Article, Philology, Original Paper)

The Use of Folklore Elements in Shahodat Isakhonova’s Historical Novels

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 10.05.2026
Revised: 22.05.2026
Accepted: 16.06.2026
Published: 26.06.2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license.

Matmusayeva Nadira Mamirovna [1*]

[1] University of economocs and pedagogy, Andijan; Uzbekistan; mamirovnanadira@gmail.com.
* Correspondence: mamirovnanadira@gmail.com; +998994438185: (171003; Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street; University of economics and pedagogy; Department of Primary Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor; Andijan; Uzbekistan)

Abstract

The writer Sh. Isakhanova, who has taken her place in the field of Uzbek literature, takes the path of describing the most important aspects of the hero's life and revealing the roots of the formation of the characteristics of his character and actions. In Adiba's novels, this method of epic imagery can be observed in the concepts of space, time and personality, the ability to convincingly describe various life events, and reflect reality from different angles. In her historical novels, Sh. Isakhonova makes extensive use of the riches of the living folk language and the norms of the literary language in revealing the personality of a woman, her character, and her spirituality, and in turn contributes to the growth of both the living language and the literary language. The writer, choosing words and phrases based on the essence of the events and the character of the characters, makes a worthy contribution to today's Uzbek novelism in terms of the fluency and sharpness of her artistic language. The article presents the stylistic skills of creating the characters of women of different social backgrounds in the historical novels "The Princess Caught in the Trap of Genghis Khan", "Bibikhanim", "Gavharshod Begim", and "Nodirai Davron" written by Sh. Isakhanova during the years of independence, based on artistic evidence.

Keywords: female image, artistic image, historical-biographical novel, proverb, artistic image, character, language and style of the work, phrase, riddles

1. Kirish

Tarixiy-badiiy asar xalq o‘tmishining muayyan davrlarini badiiy aks ettiruvchi janr sifatida o‘z oldiga nafaqat tarixiy voqelikni yoritish, balki o‘sha davrning ijtimoiy-ma’naviy muhitini, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati, san’ati, dunyoqarashi va tafakkur tarzini haqqoniy tasvirlash vazifasini ham qo‘yadi. Shu bois tarixiy romanlarda tasvirlanayotgan davr ruhini to‘laqonli ifodalash uchun o‘sha zamonga xos bo‘lgan hayot tarzi, insonlararo munosabatlar, qadriyatlar hamda xalq tili unsurlarining badiiy talqinda namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy asarda voqealar kechayotgan muhitni yaratish, qahramonlar xarakterini ochib berish, ularning o‘zaro munosabatlari va ruhiy holatini tasvirlashda asar tili va uslubi alohida o‘rin tutadi. Aynan badiiy til vositasida ijodkor tarixiy davr koloritini tiklaydi, obrazlarning individual xususiyatlarini ochadi hamda tasvirlanayotgan voqelikning ishonchliligini ta’minlaydi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalarining badiiy matnga olib kirilishi tarixiy muhitni jonlantirish, qahramonlar nutqini tabiiylashtirish va asarning milliy ruhini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Zero, “Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, umrboqiyligi, o‘ziga xos fazilatlari, sehri va jozibasi, ijodkorning badiiy mahorati, yozuvchining individual uslubi, asar tilining boyligi, muallif nutqining o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi” [1]. Darhaqiqat, asarning badiiy-konseptual olamini shakllantirishda eng muhim omillardan biri uning nutqiy jihati sanaladi.

Yozuvchi tomonidan tanlangan so‘z, ibora, maqol va boshqa xalqona ifodalar nafaqat til vositasi, balki tarixiy davrning ma’naviy qiyofasini aks ettiruvchi badiiy vosita vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Shahodat Isaxonovaning tarixiy romanlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarining qo‘llanishi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Adiba o‘z asarlarida xalqning asrlar davomida shakllangan donishmandligi, hayotiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi maqol, matal, ibora, topishmoq va boshqa folklor unsurlaridan mahorat bilan foydalanadi. Bu esa tarixiy shaxslar obrazini yanada yorqinlashtirish, qahramonlarning ichki dunyosi va xarakter xususiyatlarini ochish hamda romanlarning badiiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ham badiiy nutqning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari yaqqol namoyon boʻladi. Chunki folklor asarlari xalqning koʻp asrlik tajribasi, dunyoqarashi, estetik qarashlari va maʼnaviy qadriyatlarini oʻzida aks ettiruvchi bebaho manbadir. Professor H. Boltaboyev taʼkidlaganidek, badiiy nutq turli nutq shakllarini oʻzida mujassamlashtirish xususiyatiga ega. Bu jihat xalq ogʻzaki ijodida ayniqsa yaqqol koʻrinadi. [2]. Zero, folklor asarlari dastlab ogʻzaki shaklda yaratilgan va avloddan avlodga ogʻzaki ijro orqali yetib kelgan. Shu sababli ularda xalqning jonli soʻzlashuv tili, qadimiy iboralar, maqol va matallar, tasviriy ifodalar hamda turli davrlarga xos til unsurlari saqlanib qolgan.

Xalq ogʻzaki ijodidagi dostonlar, ertaklar, afsonalar va qoʻshiqlarda badiiy nutqning obrazlilik imkoniyatlari keng namoyon boʻladi. Masalan, dostonlarda qahramonlarning jasorati, vatanparvarligi va insoniy fazilatlari kuchli tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Qahramonlarga berilgan mubolagʻali tasvirlar, ramziy obrazlar va takroriy ifodalar tinglovchiga kuchli estetik taʼsir koʻrsatadi. Bu esa B.Yoʻldoshev qayd etganidek, badiiy asar tilining obrazliligi va ifoda imkoniyatlari uning taʼsir kuchini belgilashini koʻrsatadi. [3].

Folklor namunalarining tili xalqning ijodiy tafakkuri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, unda oddiy soʻzlar ham badiiy maʼno kasb etadi. Xalq ijodkorlari til boyliklaridan mahorat bilan foydalanib, oʻziga xos obrazlar va ifoda shakllarini yaratganlar. Natijada xalq ogʻzaki ijodi nafaqat madaniy meros sifatida, balki milliy til taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida ham qadrlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, xalq ogʻzaki ijodidagi badiiy nutq xususiyatlarini oʻrganish orqali xalqning estetik qarashlari, tarixiy xotirasi va til imkoniyatlarini chuqur anglash mumkin. Folklor asarlarida mujassam boʻlgan obrazlilik, uslubiy rang-baranglik va ifoda mahorati keyingi yozma adabiyot taraqqiyotiga ham kuchli taʼsir koʻrsatgan.

3. Muhokama

Sh.Isaxonova “Chingizxon tuzogʻiga tushgan malika”, “Bibixonim”, «Gavharshod begim” va “Nodirai davron” romanlarida tarixiy voqelik va tarixiy ayol shaxslar obrazini yaratishda jonli xalq tilining serqatlam xususiyatlaridan hamda badiiy tilning rang-barang imkoniyatlaridan keng foydalanadi, natijada uzoq oʻtmish koʻz oʻngimizda jonlanadi. Adiba har bir asarga xos davr muhitini, oʻzaro munosabatlar dinamikasini, mavjud ijtimoiy tuzum chigalliklarini badiiy aks ettirar ekan, har bir holatga mos tasvir usullarini tanlaydi, roviy bayonida ham, personajlar nutqida ham ijtimoiy jarayon xarakterini va tarixiy shaxslarning ruhiy-maʼnaviy olamini ochishga hamda ana shu ikki jihatning uygʻunlashuviga harakat qiladi.

Sh.Isaxonova ham oʻz asarlarida oʻzbek xalqining madaniy merosi, xalq ogʻzaki ijodi namunalari – nutqiy kalimalar, ibora, maqol, matallardan, davrga xos tarixiy soʻzlardan oʻrinli va unumli foydalanib, “nutqiy goʻzalliklarni yangi, ohorli shakl va usulda ifoda qilib” [2].badiiy obraz, xarakterlar yaratadi. Asarlaridagi voqealar jarayonida asosiy konfliktni aniqroq yoritib berish uchun personajlar tilida ular (iboralar, maqol, matallar)ga alohida eʼtibor qaratganligini koʻramiz.

- Sizni uylantirmoq Olimxonga qolibdurmu? — dedi oʻsha kuni bu xabarni xonzodadan eshitgan Guloyim begimning bugʻdoyrang yuzlari gʻazabdan koʻkarib va doimo kulib turadigan qisiq koʻzlarida beixtiyor yosh halqalandi. — Bul gap qayerdin va kimdin chiqmish? Nechun sizning taqdiringizni alar yolgʻiz oʻzlari hal etishadur? Ne sababdin oʻshal mashvaratlariga meni chorlashmabdur? Men oʻlgan erkanmu, yoxud pesu maxovmanmu? Demak, boqqan ona ermas, tuqqan ona erkanda! Mening mehnatlarim hisobga kirmas erkanda! Qiblagohingiz, rahmatli ogʻam tirikliginda ham meni "amma, eshigida tamba" deb itning keyingi oyogʻi sanashar erdi. Siz uchun barchasiga chidaganmen.

Xonzoda o‘g‘lonimiz er yetib, songa kirsa, men ham songa kirurmen deb doimo orzu qilganmen! Demak, hali ham songa kirmagan erkanman-da!? Bul haqda hech bo‘lmasa siz o‘ylashingiz kerak erdi! Siz nechun ammamni ham taklif etaylik demadingiz? Yo siz uchun ham faqatgina ammammanmu? [6].

Yozuvchi “Nodirai davron” romanida Umarxonni uylantirishlari haqidagi gapni eshitgan ammasi Guloyim begim obrazining ichki dunyosi, iztirobi, alam va noroziligini ifodalashda xalq tilidan o‘rinli foydalanadi. Umarxonni o‘zining farzandiday tarbiyalab, mehr berib, biroq inson sifatida qadrlanmaganidan qalbi o‘rtangan Guloyim begimning ichki dramatizmi “ichida tug‘yon urayotgan va nashtarga aylanib, bo‘g‘ziga qadalayotgan so‘zlar “ Boqqan ona ermas, tuqqan ona erkan-da”, “Amma eshigi tamba”, “Itning keyingi oyog‘i”,”Er yetib songa kirsa” kabi matal, ibora va maqollar orqali namoyon bo‘ladi. Muallif qahramonning hissiyotlarini kuchli dialog va ritorik savollar orqali ham ochib beradi.

Yoki “Султон Жалолиддин Мангуберди ёхуд Чингизхон тузоғига тушган малика” romanida Turkon xotun o‘g‘li Sulton Xorazmshohning “musulmon dunyosining beshigini tebratib turgan xalifalik jilovini qo‘lga olmoq” maqsadida o‘ylamay qilgan kaltabinlarcha harakati sababli, Xorazmning qay holga tushganligini eslatib, yana shunday xatoni takrorlamaslik, yechimsiz ahvolga tushib qolmaslik uchun jon kuydirib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi:

- Bir balchiqqa ikki bora tushulmaydur, Sultonim! – dedi Turkon xotun o‘g‘lining ichdan zil ketganini his qilib, endi nasihat ohangida so‘zlarkan, – Zero, ajdodlarining o‘tmishdagi bosqini xalifa uchun ham, avlodlari uchun ham bir saboqdur! Shul bois, alar bul nomaqulning nonini ikkinchi qayta yemaydurlar... "O‘zlik -o‘zlik bilan topishar, yotga balo yopishar" deganlariday, yo‘q baloni o‘zingiz sotib olmoq ne kerak axir? Hammadin o‘zingizga dushman yasagandin ko‘ra, g‘animni ham o‘zingizga esh eting. Inson xom sut emgan bandadur, bir mehringiz birlan do‘st bo‘lar, bir qahringiz ila yovlashur. Meni kechiring-u, siz ayni damlarda, hatto, meni, o‘z volidangizni ham dushman sanog‘iga qo‘shmoqdin toymayotirsiz![5].

Berilgan parchadagi Turkon xotun nutqidagi ibora, maqollar uning shaxsini xarakterlash, nutqini individuallashtirish, fikrni, mazmunni yanada ta’sirli, kuchliroq ko‘rsatish uchun, ona - o‘g‘il o‘rtasidagi ro‘y bergan tortishuv, kelishmovchilik manzarasi, malikaning ma’naviy dunyosi, uning tashqi qiyofasini xarakterlash uchun qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Sh.Isaxonova muallif tilidan ham qahramon kayfiyati, xarakteriga xos xususiyatlarni, voqealarni yoritishda, unga nisbatan munosabatini ochiqlashda xalq hikmatlari orqali ifodalash yo‘lini tutadi. Masalan: dushman sirtinda bo‘lguncha ichinda bo‘lsin; yirtig‘imga yamoq bo‘lgan [6], yog‘ yeganda yot yaxshi, qon ichganga qarindosh; tirik bo‘lib to‘rda yo‘q, o‘lik bo‘lib go‘rda yo‘q; yolg‘izingni yomonlasang, yotning mehri ketadur; [4], zo‘rdan zo‘r chiqsa oyog‘i pitir-pitir; o‘ladigan ho‘kiz pichoqdan toymagan; ko‘rgan edim o‘rvangni, tagi teshik to‘rvangni; mol egasi, mulk egasi, qani uning ilk egasi; [5], bir boshga bir o‘lim;, nina bilan quduq qazish; qoshuq navbat bilan aylanur;[7] va boshqalar.

Ijodkorning xalq ijodiyoti mahsulidan o‘rinli foydalanishi badiiy asarning obrazliligini ta’minlaydi. Shahodat Isaxonova ham personajlar tili orqali ijtimoiy hayotni, tarixiy voqelikni badiiy aks ettirish, asar personajlari nutqining o‘ziga xosligini yuzaga keltirish, uning ta’sir kuchini oshirish, qahramonlar psixologiyasini yoritishda umumxalq tilining imkoniyatlaridan keng va unumli foydalanishga jiddiy e’tibor qaratgan. Shu sababli uning tarixiy romanlarining barchasida jonli xalq tili boyligi bo‘lgan maqol va matallarning mashhur bo‘lgan va bo‘lmagan variantlari qo‘llanilgan. Masalan, “Nodirai davron” romanida 100 ga yaqin maqol va matallar holatga, obrazlar xarakteriga ko‘ra o‘z o‘rnida ishlatilgan.

Ba’zan ijodkorning romanlarida gapdan gapning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor; yolg‘izingni yomonlasang, yotning mehri qochadi; ko‘ngli bo‘sh ayol g‘ar, ko‘ngli bo‘sh erkak xor; yog‘ yeganda yot yaxshi, qon ichganda qarindosh; yigitga o‘lim yo‘qdir, o‘zini-o‘zi tig‘ga uradur; taka bo‘lsin, sut bersin; ul so‘ygan xo‘rozni men allaqachon part qilganman; tilim tilim tilimdur, boshga yetgan tilimdur; qirchinidan qiyilmoq kabi ibora, maqol, matallarni ayrim o‘rinlarida personajlar nutqida takror qo‘llaganligini uchratamiz.

O‘shanda uchlari qo‘ng‘iroq, qop-qora sochlari hozir kumushrang tusga kirgan Gavharshod begim Abusaid mirzoning qarashlaridagi ma’nodan so‘ylamoqchi bo‘layotgan so‘zlarini anglab turar, ya’ni mirzo so‘ygan xo‘rozni allaqachon part qilib qo‘ygan va uning o‘zi yorilishini kutib, sukut saqlamoqda edi. [7]..

- Nima bo‘pti sensirasam, o‘zi eshitayotgani yo‘q-ku! Qizi malikaning yonini olayotgani Begika begimning nafsoniyatiga tegib, battar lovulladi. – Malika bibingizning ikki yuzlamachiligiga jonim chiqqanidin gapirayotirmen! Xabarchining kimligini bilsa ham bilmaslikka olib, xizmatkordin atay so‘rayotir. Xizmatkor menga qarab, tomoq qirganini ko‘rdingizmu? Malika so‘ygan xo ‘rozni men allaqachon part qilganmen. Go‘yo alardin boshqalarning aqli yo‘q!..[7]..

- Noiblikni bo‘ynimizga olganimiz yetmaydurmi, ul mal’unga? Boshqa haddidan oshmasun! Bir Nasrulloxonga javob qilmoq qo‘limizdan keladur, volidam! Andin ko‘ra o‘g‘lingiz Sulton Mahmudxonga nasihat qiling, “bojaman”deb Nasrulloxonning pinjiga ko‘pam tiqila bermasun! Nasrulloxonning niyati aniq, birlashib, katta turkiy davlat quramiz degan bahonada Xiva va Ho‘qand xonligini qo‘shib olib, o‘ziga qaram etmoqchi. Ul amir so‘ygan xo‘rozni man allaqachon part qilganman! ...[6]

Yoki:

- Ha, qirchinimda qiyilmoq vaqti fursati etdi, shekilli, kecha tabiblar bedavo dardga mubtalo bo‘lganimni so‘ylashdi.[6]

- Oh, mening navqiron bahodirlarim! Oh, mening suyanch tog‘larim, umid tutgan chinorlarim, dunyolarga bergusiz pahlavonlarim! Bu dunyoi dunning aldovlariga uchib, qirchininda qiyilgan shahzodalarim! Men sizlarni Ollohdan yig‘lab-yig‘lab oxir oqibat mana shul bir hovuch sovuq tufroqqa aylanishingiz uchun tilab erdimmu?[*Исаконова*, 2023: 109.]

- Ichimni qizitmay, ayta qoling endi! – yalindi pakana juvon.

- “Tilim, tilim, tilimdur, boshga yetgan tilimdur...” degan erkan bittasi, qo‘ying gap mendan chiqmasun![4]

- Tilim, tilim, tilimdur, boshga yetgan tilimdur-da, olampanoh, amirim!- Amirning ovozidagi hamdard ohangdan Hoziqning ko‘nglidagi qo‘rquv chekinib, o‘zini erkin his eta boshladi. – Amr eting, amirim, shul tilimni kesib tashlasunlar! [6]

- Tilingga ehtiyot bo‘l! – dedi Gavharshod begim kundan –kunga haddidan oshib, havolanayotgan keliniga nasihat ohangida – “Tilim- tilim tilimdur , boshga yetgan tilim-dur”, [4] degan naql bor.Qari megajin emas, malikai oliya keldi!

Yuqoridagi personajlar nutqida qo‘llanilgan, takror berilgan turg‘un birikmalar nutqqa hayajonlilik, emotsionallik kiritishda xalq tilida juda ko‘p qo‘llaniladigan, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga majbur qilish ta’sir kuchiga ega bo’lgan variantlaridir, shu bois badiiy asarlarning deyarli ko‘p o‘rinlarida ana shu variantlar qo‘llaniladi, bu esa tilning badiiy imkoniyatlari qanchalik keng ekanligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi o‘z maqsadini, kimga, nimaga urg‘u berayotganini anglatish uchun xalq jonli tilidagi nutqiy kalimalar (“Ko‘zimning nuri, belimning quvvati”) hamda (Poshshoyim, poshsha qizim, Gultojim, olampanoh, shaxzodai juvonbaxt, farzandi qobil) kabi so‘zlarni konteksga shunday mohirona singdirib yuboradiki, ular o‘quvchining qalbini rom etadigan vositaga aylanadi.

O‘zbek xalqida har bir ota-ona o‘z farzandi-arjumandiga mehri tovlanganda, mu-habbati jo‘shib ketganda, ularning ruhiyatini ko‘taradigan so‘zlar bilan erkalaydi,

ardoqlaydi. Xuddi shuningdek, Sh.Isaxonova asarida ham Bibixonim o‘zi farzand ko‘rmagan bo‘lsa-da, onalik mehri, buvilik qalbini o‘gay nabiralari Pir Muhammad Jahongir, Xalil Sulton, Mirzo Ulug‘beklarga ortig‘i bilan berganligini “ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati” deya erkalatma so‘zlari orqali ochib beradi. Yana bir sababi, Sohibqiron bu shahzodalarning tarbiyasini go‘dakligidan Saroymulkxonimga topshirgan edi. Ularning har biri qaysidir bir jihati (aql-zakovati, teran fikrliligi, harbiy sarkardalik) bilan boshqa nabiralardan farqlanar, shu bois Amir Temur ularning iste’dodiga yuqori baho bergan edi. Bibixonim shahzodalarni “ko‘zimning nuri, belimning quvvati” deb ardoqlashi ham shunchaki erkalatma so‘lar bo‘lmay, kelajaklari uchun umid nishonasi ham edi.

Asarda tarixiy voqelikni badiiy ifodalash, milliy koloritni yoritish, xalqchillikni ko‘tarish, qahramonlar obrazini chizishda xarakterlarning individual bo‘lishi uchun va ularning ruhiy olamini, fe’l-atvoriga xos xususiyatlarni ochishda badiiy vositalardan, xalq donishmandligi durdonasi – topishmoqlardan ham foydalanishning ahamiyati bor.

Ko‘p asrlar davomida shakllangan xalq donishmandligining noyob namunalari hisoblangan topishmoqlar insonning tafakkurini, kuzatuvchanligini hamda badiiy tasavvurini rivojlantiruvchi aqliy mashq sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular faqatgina hordiq chiqarish yoki ko‘ngilochar vosita emas, balki ajdodlarimizning ma’naviy dunyosi, hayot tarzi va tarixiy o‘tmishi haqida muhim ma’lumot beruvchi manba hamdir. Topishmoqlar xalqning madaniy merosini o‘zida mujassam etgan bebaho yodgorliklar hisoblanadi. Shu munosabat bilan rus yozuvchisi A. N. Tolstoy og‘zaki ijodni xalqning oddiy ko‘ngilochar mashg‘uloti emas, balki uning aql-zakovati, vijdoni, ma’naviy qiyofasi va tarixiy xotirasining ifodasi sifatida baholagan.[9]. Darhaqiqat, qadimgi davrlarda topishmoqlar bugungi kundagiga nisbatan ancha muhim ijtimoiy va ma’naviy ahamiyat kasb etgan.

O‘zbek topishmoqlari badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi, jumladan, istiora, qiyos va obrazli ifodalarga boyligi bilan xalqning dunyoqarashi, estetik didi hamda ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ular nafaqat milliy folklorning bebaho namunasi, balki bugungi kunda ham badiiy adabiyot uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu xalqona estetik an’analar zamonaviy nasrda ham davom ettirilib, asarlarning ta’sirchanligi va badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, Sh. Isaxonovaning «Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika» romanida Turkon xotinning yosh shahzodalarni sinovdan o‘tkazish jarayonida oddiy buvi va nabiralar kabi samimiy munosabatda bo‘lishi, shahzodalarning bolalarcha qiliqlarining tabiiy va ishonarli tasvirlanishi o‘quvchida iliq tuyg‘ular uyg‘otib, yuksak estetik zavq bag‘ishlaydi.

- Bir kiyim bor tengi yo‘q,
Yoqasi-yu yengi yo‘q,
Lekin kordir hammaga,
Tog‘a, jiyan, ammaga...

- Ro‘mol, – shoshqaloqlik bilan hammadan oldin javob berdi shahzoda Kuntug‘mish.

Kichik Votvot “yo‘q” deganday, ohista bosh chayqadi. Qolgan shahzodalar ham javobning to‘g‘riligiga unchalik ishonishmay, bir Kichik Votvotga, bir malikaga qarashdi. Shahzoda Jahongir “u nima” deganday, otabegiga sirli imo qildi. Otabegi esa hech narsani sezmaganday, yo‘talib, ko‘zini pastga oldi.

Malikaning yuzlari jiddiy tortib, erka nabirasiga norozilanib o‘girildi.

Topolmadingiz! – dedi malika ko‘rsatgich barmog‘ini yuziga tekkizganicha “uyat” ishorasini qilib.[5]

Kichik Votvot esa xuddi javobni o‘zi aytganday, ovoziga mardonavor tus berib, topishmoq aytishda davom etdi:

- Ustuni yo‘q, toqi bor,
Dur to‘la ravoqi bor...

- Yulduzli osmon!

Kichik Votvot hali so‘zini tugatib ulgurmay, shahzoda Kuntug‘mish yana ulli bibisining tanbehini unutganicha, beixtiyor, so‘zlandi. Bu safar malika kulib yubordi.[5]

Tolibi ilmlar va shahzodalarning bilim darajalarini sinash, ularga dars berayotgan mudarrislarning mahoratlarini aniqlash, shahzodalarning zehnini o‘tkirlash maqsadida aql-ziyraklik musobaqalari va mashvaratlarni malika tomonidan uyushtirilishi uning fe’l-atvoridagi shahzodalar ta’lim-tarbiyasiga bo‘lgan yuksak mas’uliyat hissini namoyon etadi. Bu jihatlar malika obrazining faqatgina siyosiy va ijtimoiy mavqega ega shaxs sifatida emas, balki ilm-ma’rifatni ulug‘lovchi, avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratuvchi oqila va ma’rifatparvar ayol sifatida yaratilganligini ko‘rsatadi. Adiba tomonidan malikaning ana shunday xususiyatlarini yoritish orqali tarixiy shaxs ruhiyati, uning dunyoqarashi va faoliyat mazmuni badiiy jihatdan ta’sirchan ifodalangan.

4. Xulosa

Sh.Isaxonova “Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshod begim” va “Nodirai davron” romanlarida bir-biridan keskin farqlanuvchi turli xronotopga oid uzoq o‘tmish voqeligini tasvirlasa-da, har bir asari o‘ziga xos ifoda yo‘sini, dramatizmga yo‘g‘rilganligi, badiiy puxta tilda bayon qilinganligi bilan kitobxon e’tiborini o‘ziga tortadi. Bu tarixiy romanlardagi ekspressiv to‘yintirilganlik, tarixiy va badiiy talqin uyg‘unligi, obraz va obrazlilik, muallif va personaj nutqi jozibadorligi bilan zamon va makon sarhadlarini yorib o‘tib, bugungi kun kitobxonlariga o‘tmish voqeligini ishonarli tarzda hikoya qiladi, mushohadaga chorlaydi.

Muallif haqida ma’lumot:

Matmusayeva Nadira Mamirovna, Andijon shahar, University of Economics and Pedagogy, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), vb dotsenti, ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-83465562, E-mirovnanadira@gmail.com, +998994438185, O‘zbekiston, 171003, Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani, Mehnat MFY, Do‘stlik ko‘chasi 45-uy.

Information about the author:

Matmusayeva Nadira Mamirovna, Andijan City, Uzbekistan, University of Economics and Pedagogy, Department of Primary Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-8346-5562, E-mail: mamirovnanadira@gmail.com, +998994438185, Uzbekistan, 171003, Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street.

References

[1] Рахимов З.А. Одил Ёқубов тарихий романлари поэтикаси: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси, – Фарғона, 2022. – Б.199.

[2] Болтабоев Н. Адабиёт энциклопедияси (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). II жилд: Б– Ё. – Тошкент: ”Mumtoz so ‘z”, 2017. –Б.17.

[3] Yo‘ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. – Samarqand, 2006.

[4] Исахонова Шаҳодат. Гавҳаршод бегим. – Тошкент: Ma’rifat bitiklari, 2023. – 320 б.

[5] Исахонова Шаҳодат. Султон Жалолиддин Мангуберди ёхуд Чингизхон тузоғига тушган малика. – Тошкент: Sano standart, 2018. – 480 b.

[6] Исахонова Шаҳодат. Нодираи даврон ёхуд амирнинг тавқи лаънат тўни (тарихий роман). – Тошкент: Ma’rifat bitiklari, 2021. – 360 б.

[7] Исахонова Шаҳодат. Бибихоним. Турон маликалари (тарихий роман). – Тошкент: “Ma’rifat bitiklari”, 2022. – 480 б.

[8] Ёқубов И. Ғалвир сувдан кўтарилганда. // “Шарқ юлдузи”. 2012, № 5. –Б. 4.

[9] Ҳусаинова З. (тузувчи). Топишмоқлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик, 23-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

Disclaimer/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma'lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo'lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.